

**МЕДИЦИНА, ПЕДАГОГИКА И ТЕХНОЛОГИЯ:
ТЕОРИЯ И ПРАКТИКА**
**Researchbib Impact factor: 11.79/2023
SJIF 2024 = 5.444**
Том 2, Выпуск 9, 30 Сентябрь

RAQOBATBARDOSH KADRLAR TAYYORLASH YO'LIDA

Sh.N.Axmedova,

Osiyo xalqaro universiteti professori, filologiya fanlari doktori

Annotatsiya. Mazkur maqolada mamlakatimizda ta'lim-tarbiya sohasida yuz berayotgan islohotlar, globallashuv davrida malakali va raqobatbardosh kadrlar tayyorlashda ta'limning uzviylik tamoyiliga amal qilish va yechimini kutayotgan ba'zi muammolar haqida fikr yuritilgan.

Kalit so'zlar: ta'lim, tarbiya, globallashuv davri, yetuk mutahassis, raqobat, sifat, kadrlar tayyorlash.

Abstraktnyyu. V dannoy state razmyishlyayutsya reformy, proisxodyuashie v sfere obrazovaniya v nashey strane, soblyudenie prinsipa chestnosti obrazovaniya pri podgotovke kvalifitsirovannykh i konkurentosposobnykh kadrov v epoxu globalizatsii, a takje nekotorye problemy, ojidayushchie resheniya.

Klyuchevyye slova: obrazovanie, vospitanie, epoka globalizatsii, zrelyu spesialist, konkurensiya, kachestvo, podgotovka kadrov.

Abstract. This article reflects on the reforms taking place in the field of education in our country, compliance with the principle of educational integrity in the preparation of qualified and competitive personnel in the era of globalization, as well as some problems awaiting solutions.

Key words: education, upbringing, era of globalization, mature specialist, competition, quality, personnel training

Kirish. Global o'zgarishlar davrida ta'lim-tarbiyaga ehtiyoj har qachongidan ham ortib bormoqda. Chunki hayot o'zgarish sur'atlari tezlashadi. Bu, avvalo, mustaqillik tufayli ta'lim-tarbiyaning g'oyaviy-mafkuraviy asoslari, negizlari

**МЕДИЦИНА, ПЕДАГОГИКА И ТЕХНОЛОГИЯ:
ТЕОРИЯ И ПРАКТИКА**

Researchbib Impact factor: 11.79/2023

SJIF 2024 = 5.444

Том 2, Выпуск 9, 30 Сентябрь

tubdan o‘zgarganligi bilan bog‘liq, ya’ni, ta’lim-tarbiya sohasi tubdan isloh etilmoqda, u yagona kommunistik g‘oya tamoyillari, maqsad va vazifalaridan xalos bo‘ldi. Ta’lim-tarbiya sohasida dunyoda erishilgan yutuqlarga, axborot kommunikatsiya tizimi, pedagogik texnologiyalarni joriy etgan holda ta’limni amalga oshirishga, ta’lim sohasiga yangi innovatsiyalarni joriy etish davlat siyosati darajasida e’tibor berilmoqda. Uning yutuqlarini, ayniqsa, ta’lim va tarbiyaning uzviy bog‘liqligi, bu jarayonning har tomonlama kamol topgan insonni shakllantirishga yo‘naltirilganligini dunyo e’tirof etmoqda.

Bu sohadagi muhim islohotlardan biri yangi, shu bilan birga xususiy oliy ta’lim muassasalarining tashkil etilayotganligi, zamonaviy ta’lim yo‘nalishlari va mutaxassisliklari, ayniqsa, xalqimizning orzusiga aylanib qolgan sirtqi va kechki bo‘limlarning ochilishi, qabul kvotalarining oshirilishi hisoblanadi.

Asosiy qism. Fan yuqori malakali mutaxassisni tayyorlovchi va ulardan foydalanuvchi, ilg‘or pedagogik va axborot texnologiyalarini ishlab chiqaruvchi bo‘lib, «kadrlar tayyorlash milliy tizimida tabiat va jamiyat taraqqiyoti qonuniyatlari to‘g‘risidagi yangi fundamental va amaliy bilimlardan foydalanishni, yuqori malakali ilmiy va ilmiy-pedagog kadrlar tarkibini shakllantirishni, ulardan ta’lim tizimida unumli foydalanishni, shuningdek, kadrlar tayyorlash jarayonining ilmiy tadqiqotlar infrastrukturasini yaratish, ta’limning axborot tarmoqlarida foydalanish uchun bilimning turli sohalari bo‘yicha axborot bazasini shakllantirishni hamda ilmiy tadqiqotlar darajasiga yangicha qarashlar zamirida yosh olimlarning, ilmiy-pedagogik xodimlarning ijtimoiy mavqeい va obro‘sini oshirishni va shu kabilarni qamrab oladi»¹.

¹ Barkamol avlod orzusi //Tuzuvchilar Sh.Qurbonov, H.Saidov, R.Ahliddinov. – Toshkent: Sharq nashriyot-matbaa konserni Bosh tahririyati, 1999. – 172-bet.

МЕДИЦИНА, ПЕДАГОГИКА И ТЕХНОЛОГИЯ: ТЕОРИЯ И ПРАКТИКА

Researchbib Impact factor: 11.79/2023

SJIF 2024 = 5.444

Том 2, Выпуск 9, 30 Сентябрь

Milliy model Konsepsiyasining mazmuni o‘zbek xalqining milliy turmush tarzi va ma’naviy-axloqiy an’analari bilan hamnafasdir. Zero, xalq orasida qadimdan «ma’rifatli inson» tushunchasi qo‘llanilib kelingan bo‘lib, u o‘zida keng ma’noni ifoda etadi. Bilim olishga intilish, ma’rifatli bo‘lish o‘zbek xalqi, millatining ruhiyatida ustuvor o‘rin tutuvchi omil sanaladi. Ma’rifatlilik – faqatgina bilim va malakaga ega bo‘lish emas, ayni vaqtida chuqur ma’naviy axloq hamdir. Bilimli, komil inson qiyofasida ana shunday xislatlarga ega shaxslar namoyon bo‘ladi. Shuning uchun ham kadrlar tayyorlash milliy modelining butun mohiyati o‘zbek xalqining milliy tarixi va hayot tarzi bilan bog‘lanib ketgan.

Mustaqil O‘zbekiston Respublikasida o‘ziga xos, takrorlanmas, tarixiy an’analarga asoslangan hamda bugungi kun talablariga to‘la javob bera oladigan kadrlar tayyorlash milliy modeli yaratildi.

Globallashuv davrida malakali va raqobatbardosh kadrlar tayyorlashda ta’limning uzviylik tamoyiliga amal qilish har qachongidan ham muhimdir. Mashhur xitoy faylasufi Konfutsiyning shunday hikmati bor: agar sen xalqingni bir yil boqmoqchi bo‘lsang, bug‘doy ek, o‘n yil boqmoqchi bo‘lsang, daraxt ek, agar asrlar davomida boqmoqchi bo‘lsang, bilim, ilm ek. Bugungi kunda ilm-fanga qaratilayotgan e’tibor yurtimizning porloq kelajagi sari tashlangan dadil qadamlardan biridir. Shu bilan birga sohada e’tibor qaratish, hal etish zarur bo‘lgan muammolar ham talaygina. Masalan, talabalar bilimini baholash tizimi bugungi kun talablariga javob bermayotganligi hammaga ayon haqiqat. Mana shuning oqibatida talabalarimizning ko‘pchiligi qunt bilan fanlarni o‘zlashtirish o‘rniga internetdan tayyor mavzularni, referatlarni, hattoki, butun boshli bitiruv malakaviy ishlarni ham ko‘chirib olib taqdim etmoqdalar. Ikkinchidan, ta’limning barcha yo‘nalishlarida o‘zbek tili va adabiyoti fanlarini o‘tish zaruriyatga aylanmoqda, bunga sabab bitiruvchilarimizning ko‘pchiligi og‘zaki va yozma nutqi haminqadar bo‘lib,

**МЕДИЦИНА, ПЕДАГОГИКА И ТЕХНОЛОГИЯ:
ТЕОРИЯ И ПРАКТИКА**
Researchbib Impact factor: 11.79/2023
SJIF 2024 = 5.444
Том 2, Выпуск 9, 30 Сентябрь

maktab, litseylarda o‘z fanini ham tushuntira olmay, qiyinalib qolayotganlari ayni haqiqat. Avvallari ishlab chiqarish tayyor kadrlar kuchi va salohiyatidan foydalanuvchi iste’molchi sifatidagina faoliyat olib borgan bo‘lsa, bugungi kunda ushbu faoliyatning mazmuni tubdan o‘zgardi. Endilikda ishlab chiqarish kadrlarni tayyorlash sifati va saviyasiga nisbatan o‘z talablarini qo‘ya oladi. Shu bilan birga sifatli hamda yuksak saviyali mutaxassisni tayyorlab yetishtirish yo‘lida uzlusiz ta’lim hamda fan tarmoqlarining moliyaviy, moddiy-texnik jihatdan qo‘llab-quvvatlash majburiyatini o‘z zimmasiga oladi.

Uchinchidan, o‘qishga kirishda test savollari abiturientning mantiqiy fikrlash qobiliyatini, og‘zaki va yozma savodxonligini aniqlash imkonini bermayotganligi ham bunga sabab bo‘lmoqda.

To‘rtinchidan, professor-o‘qituvchilarning faoliyatini, bilimini baholashning yagona zamonaviy tizimi mavjud emasligi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Oliy ta’lim muassasalarida ta’lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokni ta’minlash bo‘yicha qo‘sishimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qarorida ham ta’kidlab o‘tilgan. Bir o‘quv yili davomida 10dan ziyod maqola yozib, anjumanlarda ishtirok etgan, qo‘llanma yoki risola chop ettirgan o‘qituvchiga ham, birorta maqola yozmagan, natija ko‘rsatmagan, faoliyati past o‘qituvchiga ham bir xil munosabat kishini taajublanadiradi. Shu bois ko‘pchilik oliy ta’lim muassasalarida rag‘batlanirishning innovatsion yo‘llarini ishlab chiqish zarurati sezilmoqda.

Maqsadimiz komil insonni tarbiyalaydigan mutaxassisni har tomonlama yetuk kadr qilib chiqarish ekan, unga ta’lim-tarbiya beradigan professor-o‘qituvchining mehnatini ham zamonaviy tizim asosida baholaydigan yangi yo‘llarni kashf etish zarurligini tezkor zamon yaqqol ko‘rsatib turibdi. Bu yo‘nalishda “talabaning o‘zlashtirish darjasasi – professor-o‘qituvchilar faoliyatini

**МЕДИЦИНА, ПЕДАГОГИКА И ТЕХНОЛОГИЯ:
ТЕОРИЯ И ПРАКТИКА**
Researchbib Impact factor: 11.79/2023
SJIF 2024 = 5.444
Том 2, Выпуск 9, 30 Сентябрь

baholashning asosiy mezoni” tamoyilini joriy etish o‘qituvchining ham, talabaning ham o‘z ishiga munosabatini o‘zgartira olish mexanizmlaridan biriga aylansa, ajab emas.

Xulosa. Istiqlol davrida Milliy dasturning bosh maqsadi komil inson va malakali, raqobatbardosh mutaxassisni tayyorlashdan iborat. Malakali mutaxassis bugunning ta’biri bilan aytganda, zamon talablariga javob bera oladigan, o‘z sohasini, shu bilan birga yangi axborot texnologiyalarini, chet tillardan birini yaxshi biladigan, raqobatga dosh bera oladigan kadr hisoblanadi. Shu bilan birga qalbida mustaqil Vatanini sevish, uni asrab-avaylash tuyg‘usi yuksak bo‘lgan, uni o‘zining o‘quvchilariga yuqtira biladigan, zardushtiylarning muqaddas kitobi “Avesto”da aytilganidek, “ezgu fikr, ezgu so‘z, ezgu amal”ni bosh mezon qilib olgan mutaxassisgina globallashuv davrining sinovlaridan o‘ta oladi.

Adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi” to‘g‘risidagi Farmoni (Xalq so‘zi 2017 yil, 8 fevral).
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori “Oliy ta’lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari” to‘g‘risida (Xalq so‘zi 2017 yil, 21 aprel).
3. Mirziyoev Sh. Erkin va farovon demokratik O‘zbekiston davlatini birqalikda barpo etamiz. – T.: O‘zbekiston, 2016.
4. Kadirova N. S., Akhmedova S. N. Style and skill: critic's artistic ability. International Journal of Innovative Technology and Exploring Engineering (IJITEE). – 2019.
5. Sent-Byov Sharl. Literaturnye portretы. Kriticheskie ocherki. – M.: Xudoj. lit., 1970. – S. 313.
6. Nazarov B., Rasulov A., Akhmedova Sh., Kahramonov Q. History of Uzbek literary criticism. Tashkent. 2012.234-p.
7. Qodirova N. S. Some characteristic features, skills, and style of the literary critic //Web of Scholar. – 2018. – T. 5. – №. 2. – S. 32-35.
8. Nematovna A. S. GENRE OF LITERARY PORTRAIT IN THE WORKS OF ALISHER NAVAI //SCIENTIFIC REPORTS OF BUKHARA

**МЕДИЦИНА, ПЕДАГОГИКА И ТЕХНОЛОГИЯ:
ТЕОРИЯ И ПРАКТИКА**

Researchbib Impact factor: 11.79/2023

SJIF 2024 = 5.444

Том 2, Выпуск 9, 30 Сентябрь

STATE UNIVERSITY NAUCHNYIY VESTNIK BUXARSKOGO GOSUDARSTVENNOGO UNIVERSITETA. – T. 127.

9. Kadirova N. S., Akhmedova S. N. Style and skill: critic's artistic ability. International Journal of Innovative Technology and Exploring Engineering (IJITEE). – 2019.

10. https://uz.wikipedia.org/wiki/O%CA%BBzbekiston_milliy_ensiklopediyasi.

11. Akbarovna, I. S. (2024). PROCEDURE FOR CREATING PSYCHOLOGICAL TEST PROGRAMS. *PEDAGOG*, 7(6), 153-159.

12. Akbarovna, I. S. (2024). ЗДОРОВАЯ СЕМЕЙНАЯ СРЕДА КАК СОЦИАЛЬНЫЙ ФАКТОР ПОДГОТОВКИ МОЛОДЕЖИ К СЕМЕЙНОЙ ЖИЗНИ. *MASTERS*, 2(5), 98-104.

13. Akbarovna, I. S. (2024). SPORTCHILAR FAOLIYATINI O'RGANISHNING UMUMIY PSIXOLOGIK USULLARI. *WORLD OF SCIENCE*, 7(5), 536-543.

14. Akbarovna, I. S. (2024). A HEALTHY FAMILY ENVIRONMENT AS A SOCIAL FACTOR IN PREPARING YOUNG PEOPLE FOR FAMILY LIFE. *WORLD OF SCIENCE*, 7(5), 529-535.

15. Akbarovna, I. S. (2024). ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ ФАКТОРЫ ФОРМИРОВАНИЯ ЗДОРОВОГО ОБРАЗА ЖИЗНИ ЧЕРЕЗ ПЛАН СПОРТИВНЫХ ИГР. *WORLD OF SCIENCE*, 7(5), 521-528.

16. Akbarovna, I. S. (2024). SPORT O 'YINLARI REJASI ORQALI SOG 'LOM TURMUSH TARZINI SHAKLLANTIRISHNING PSIXOLOGIK OMILLAR. *MASTERS*, 2(5), 91-97.

17. Akbarovna, I. S. (2024). MAKTABGACHA TA'LIMDA Qiyosiy PEDAGOGIKANING AHAMIYATI. *WORLD OF SCIENCE*, 7(8), 8-13.

18. Akbarovna, I. S. (2024). PROFESSIONAL SKILLS OF THE TEACHER. *WORLD OF SCIENCE*, 7(8), 1-7.

19. Akbarovna, I. S. (2024). ПРОФЕССИОНАЛЬНЫЕ НАВЫКИ УЧИТЕЛЯ. *PSIXOLOGIYA VA SOTSILOGIYA ILMUY JURNALI*, 2(7), 7-13.

20. Akbarovna, I. S. (2024). ЗНАЧЕНИЕ СРАВНИТЕЛЬНОЙ ПЕДАГОГИКИ В ДОШКОЛЬНОМ ОБРАЗОВАНИИ. *PSIXOLOGIYA VA SOTCILOGIYA ILMUY JURNALI*, 2(7), 14-20.

21. Akbarovna, I. S. (2024). O'QITUVCHINING KASBIY MALAKALARI. *MASTERS*, 2(8), 15-21.

22. Akbarovna, I. S. (2024). THE IMPORTANCE OF COMPARATIVE PEDAGOGY IN PRESCHOOL EDUCATION. *MASTERS*, 2(8), 22-27.

**МЕДИЦИНА, ПЕДАГОГИКА И ТЕХНОЛОГИЯ:
ТЕОРИЯ И ПРАКТИКА**

Researchbib Impact factor: 11.79/2023

SJIF 2024 = 5.444

Том 2, Выпуск 9, 30 Сентябрь

23. Ikromova, S. A. (2023). FACTORS IN THE DEVELOPMENT OF IMMUNITY TO DESTRUCTIVE IDEAS IN ADOLESCENTS. *Innovation in Science, Education and Technology*.
24. Ikromova, S. A. (2023). SHAXS OG 'ISHGAN XULQINING KO 'RINISHLARI VA DESTRUKTIV AXBOROTLARNING KO 'RINISHLARI. *Educational Research in Universal Sciences*, 2(11), 528-532.
25. Akbarovna, I. S. (2023). TALABA YOSHLARDA MAFKURA TUSHUNCHASI VA MAFKURAVIY IMMUNITETNI SHAKLLANTIRISH.
26. Akbarovna, I. S. (2023). YOSHLARDA DESTRUKTIV G'YOYALARGA QARSHI IMMUNITET HOSIL QILISH OMILLARI.
27. Akbarovna, I. S. (2023). Destruktiv axborotlarga nisbatan mafkuraviy immunitet shakllantirish ijtimoiy muammo sifatida. *Barqaror Taraqqiyot va Rivojlanish Tamoyillari*, 1(6), 26-29.
28. Ikromova, S. A. (2023). Cognitive processes and their description in psychology. *TECHNICAL SCIENCE RESEARCH IN UZBEKISTAN*, 1(5), 115-133.
29. Akbarovna, I. S. (2023). NEGATIVE AND POSITIVE CHANGES IN ADOLESCENT BEHAVIOR. *TECHNICAL SCIENCE RESEARCH IN UZBEKISTAN*, 1(5), 192-197.
30. Akbarovna, I. S. (2023). SOCIO-PSYCHOLOGICAL FACTORS OF BEHAVIOR FORMATION IN ADOLESCENTS. *TECHNICAL SCIENCE RESEARCH IN UZBEKISTAN*, 1(5), 184-191.
31. Akbarovna, I. S. (2023). O'smirlarda destrukтив axborotlarga nisbatan mafkuraviy immunitet shakllantirish.
32. Ikromova, S. A. (2023). Formation of Ideological Immunity to Destructive Information. *Intersections of Faith and Culture: American Journal of Religious and Cultural Studies* (2993-2599), 1(9), 50-54.
33. Akbarovna, I. S. (2023). Adolescence during Destructive Behavior Appearances the Problem Learning Condition. *Intersections of Faith and Culture: American Journal of Religious and Cultural Studies* (2993-2599), 1(9), 105-109.
34. Akbarovna, I. S. (2023). MILLIY HARAKATLI O'YINLARNING BOLALAR TARBIYASIDAGI IJTIMOIY-PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI.
35. Ikromova, S. A. (2024). BASICS OF PSYCHOLOGICAL SERVICES. *PEDAGOG*, 7(5), 670-676.
36. Ikromova, S. A. (2022). MILLIY VA DINIY QADRIYATLARNING INSON TARBIYASIDAGI O'RNI. *Экономика и социум*, (12-2 (103)), 675-678.
37. Ikromova, S. A. (2023). Formation of Ideological Immunity to Destructive Information. *Intersections of Faith and Culture: American Journal of Religious and Cultural Studies* (2993-2599), 1(9), 50-54.

**МЕДИЦИНА, ПЕДАГОГИКА И ТЕХНОЛОГИЯ:
ТЕОРИЯ И ПРАКТИКА**
**Researchbib Impact factor: 11.79/2023
SJIF 2024 = 5.444**
Том 2, Выпуск 9, 30 Сентябрь

38. Ikromova, S. (2023). INTERPRETATION OF THE PSYCHOLOGICAL SAFETY FACTOR IN RELATION TO DESTRUCTIVE INFORMATION IN ADOLESCENTS. *Modern Science and Research*, 2(9), 390-394.
39. Akbarovna, I. S. (2023). RESEARCH METHODS OF YOUTH PSYCHOLOGY. *International Multidisciplinary Journal for Research & Development*, 10(12).
40. Akbarovna, I. S. (2023). Study of the Formation of Ideological Immunity By Foreign and Russian Researchers. *American Journal of Public Diplomacy and International Studies* (2993-2157), 1(9), 235-239.
41. Akbarovna, I. S. (2023). NEUROPHYSIOLOGY BASIS OF HORMONES. *TECHNICAL SCIENCE RESEARCH IN UZBEKISTAN*, 1(5), 68-77.
42. Икромова, С. А. (2023). ФАКТОРЫ ФОРМИРОВАНИЯ ИММУНИТЕТА К ДЕСТРУКТИВНЫМ ИДЕЯМ У ПОДРОСТКОВ. *European research*, (3 (81)), 47-49.
43. Akbarovna, I. S. (2024). STAGES OF PSYCHOLOGICAL CONSULTATION. *PEDAGOG*, 7(4), 328-334.
44. Akbarovna, I. S. (2024). PSIXOLOGIK XIZMAT ASOSLARI. *PSIXOLOGIYA VA SOTSILOGIYA ILMUY JURNALI*, 2(4), 54-60.
45. Akbarovna, I. S. (2024). THE IMPORTANCE OF PEDAGOGICAL MANAGEMENT IN EDUCATION. *PSIXOLOGIYA VA SOTSILOGIYA ILMUY JURNALI*, 2(4), 40-46.
46. Akbarovna, I. S. (2024). PSIXOLOGIK MASLAHAT BOSQICHLARI. *Multidisciplinary Journal of Science and Technology*, 4(3), 860-866.
47. Икромова, С. А. (2024). ЭТАПЫ ПСИХОЛОГИЧЕСКОЙ КОНСУЛЬТАЦИИ. *Multidisciplinary Journal of Science and Technology*, 4(3), 875-881.
48. Akbarovna, I. S. (2024). MATEMATIK TUSHUNCHALARNI SHAKLLANISHINING AHAMIYATI. *Multidisciplinary Journal of Science and Technology*, 4(3), 900-905.
49. Akbarovna, I. S. (2024). THE IMPORTANCE OF FORMING MATHEMATICAL CONCEPTS. *Multidisciplinary Journal of Science and Technology*, 4(3), 912-917.
50. Avezov, O. R. Ekstrennaya psixologicheskaya pomosh v ekstremal'nix situatsiyax. *Vestnik integrativnoy psixologii*, 4, 34-37.
51. Avezov, O. R. (2022). Psychological relations between family members. *Ssientifis Journal Impast Fastor*, 2(2), 2181-1784.

**МЕДИЦИНА, ПЕДАГОГИКА И ТЕХНОЛОГИЯ:
ТЕОРИЯ И ПРАКТИКА**

Researchbib Impact factor: 11.79/2023

SJIF 2024 = 5.444

Том 2, Выпуск 9, 30 Сентябрь

52. Elov Z.S. Sud psixologik ekspertizasi tarixi rivojlanish jarayoni bosqichlari. PEDAGOG RESPUBLIKA ILMIY JURNALI. 7 – TOM 4 – SON / 2024 - YIL / 15 – APREL. 306-313

53. M.A.Gafarova., Z.S.Elov. Inklyuziv ta’limda pedagog-psixlogning kasbiy psixologik xususiyatlari. PEDAGOG RESPUBLIKA ILMIY JURNALI. 7 – TOM 4 – SON / 2024 - YIL / 15 – APREL. 477-480

54. Z.Elov. Социально-психологические причины формирования девиантного поведения у подростков. Pedagogik mahorat. Ilmiy jurnal. 2024

55. Z.S.Elov. Zo‘ravonlik jinoyatlarini sodir etuvchi shaxslar toifasi psixologiyasi. Pedagogik akmeologiya. Ilmiy jurnal 5/3. 2024